



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING KONSTITUTSIYAVIY MAQOMI VA UNING DAVLAT FAOLIYATI JARAYONIDAGI O'RNI

Muxammadova Marjona Zavqiy qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya: Biznes huquqi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining konstitutsiyaviy maqomi, uning tuzilmasi, asosiy vakolatlari hamda davlat hokimiyati tizimidagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, parlamentning qonunchilik, nazorat va xalqaro faoliyatdagi roli tahlil qilinadi. Oliy Majlisning demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается конституционный статус Олий Мажлиса Республики Узбекистан, его структура, основные полномочия и роль в системе государственной власти. Также анализируется роль парламента в законодательной, контрольной и международной деятельности. Особое внимание уделено значению Олий Мажлиса в построении демократического общества.

Annotation: This article examines the constitutional status of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, its structure, key powers, and role within the system of state authority. The paper also analyzes the parliament's role in legislation, oversight, and international affairs. The importance of the Oliy Majlis in building a democratic society highlighted.

Kalit so'zlar: Oliy Majlis, Konstitutsiya, qonun chiqaruvchi hokimiyat, parlament nazorati, siyosiy tizim, demokratik institut.

Ключевые слова: Олий Мажлис, Конституция, законодательная власть, парламентский контроль, политическая система, демократический институт.

Key words: Oliy Majlis, Constitution, legislative power, parliamentary oversight, political system, democratic institution.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli siyosiy va huquqiy islohotlarning markazida konstitutsiyaviy tizimning shakllanishi va rivojlanishi turadi. Bu jarayonda davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo'linish prinsipi asosida tashkil etilishi, har bir tarmoqning o'ziga xos vakolatlari va funksiyalari bilan ajralib turishi demokratik jamiyat qurilishining huquqiy poydevorini mustahkamladi. Xususan, qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining konstitutsiyaviy maqomi va davlat boshqaruvidagi o'rni alohida ahamiyatga ega.

Oliy Majlis - O'zbekiston Respublikasining oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organi bo'lib, u ikki palatadan: Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat. Ushbu ikki palatali



parlament tizimi mamlakatda qonunchilik faoliyatini yanada samarali tashkil etish, siyosiy barqarorlikni ta'minlash va turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini inobatga olishga xizmat qilmoqda. Konstitutsiyada belgilanganidek, Oliy Majlis faqat qonunlarni qabul qiluvchi emas, balki ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini amalga oshiruvchi, xalq nomidan harakat qiluvchi muhim institutdir.

Shuningdek, parlamentning xalqaro aloqalardagi o'рни, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashdagi faolligi, davlat byudjeti va ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni tasdiqlashdagi ishtiroki uning konstitutsiyaviy maqomini yanada mustahkamlaydi. Oliy Majlis faoliyatining qonuniyligi, ochiqligi va oshkoraligi fuqarolarning siyosiy faolligi va huquqiy ongining oshishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining konstitutsiyaviy maqomi, uning tuzilmasi, vakolatlari, siyosiy tizimdagi o'рни, hamda xalq vakillik organi sifatidagi ahamiyati keng qamrovda yoritiladi. Shu bilan birga, Oliy Majlis faoliyatining amaldagi qonunchilik asoslari va xalq bilan aloqalari orqali qanday demokratik institutga aylanishi muhokama qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Oliy Majlisning konstitutsiyaviy maqomini aniq belgilab bergan. Konstitutsiyaning 91-moddasida ta'kidlanishicha: O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.³² Mazkur norma Oliy Majlisni qonun chiqaruvchi hokimiyatning yagona va oliy subyekti sifatida belgilaydi. Shu orqali parlament - xalq vakillik organi bo'lishi bilan birga, mamlakatda qonunchilik faoliyatini tashkil qiluvchi va boshqaruvchi markaziy institut sifatida konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi Oliy Majlisni ikki palatali tarzda - Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat qilib tashkil toptirishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardir:

- Oliy Majlis faoliyati jarayonida manfaatlar muvozanati tizimini shakllantirish;
- qonun ijodkorligining sifatini ta'minlash;
- umumdavlat va hududiy manfaatlarining mutanosibligiga erishish.³³

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi — mamlakatda qonun chiqaruvchi hokimiyatning oliy organi sifatida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, muhokama qilish va qabul qilish bo'yicha markaziy vakolatga ega. Parlament tomonidan chiqariladigan hujjatlar davlat boshqaruvi, huquqiy tartib, iqtisodiyotni tartibga solish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatlar normativ va notarial xususiyatga ega bo'lib, bevosita huquqiy kuchga ega va umummajburiy hisoblanadi. Qonunchilik palatasi o'zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan,

³² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

³³ "O'zbekiston davlati va huquqi asoslari" darslik "Huquq va Jamiyat" nashriyoti Toshkent – 2019. 70-71-betlar



shuningdek palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Qonunchilik palatasi umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa masalalar yuzasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqishi mumkin, ular palataning qarori bilan rasmiylashtiriladi. Qonunchilik palatasi qarorlari, ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.³⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinadigan qarorlar mamlakatdagi normativ-huquqiy hujjatlar tizimida muhim o'rin egallaydi. Ular qonunlardan keyingi darajadagi huquqiy hujjatlar sirasiga kiradi va ko'p hollarda qonun normalarining amaliy ijrosini ta'minlash, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilash hamda parlament faoliyati bilan bog'liq masalalarni tartibga soladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning iyerarxiyasida Oliy Majlis qarorlari Konstitutsiya va qonunlardan keyin turadi. Ular konstitutsiyaviy tartibda belgilangan vakolatlar asosida qabul qilinadi va yuridik kuchga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq, Oliy Majlis qarorlari normativ-huquqiy hujjat sifatida tan olinadi va majburiy ijroga ega.

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;

O'zbekiston Respublikasining qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik hujjatlari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining qonunchiligini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonun hujjatlaridir.³⁵

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi mamlakat siyosiy tizimining markaziy bo'g'ini bo'lib, uning konstitutsiyaviy maqomi, vakolatlari va faoliyat tamoyillari demokratik huquqiy davlatni barpo etish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Konstitutsiyamizning 91-104-moddalarida Oliy Majlisning maqomi, tuzilishi, ishlash tartibi va uning asosiy funksiyalari aniq belgilab qo'yilgan. Ushbu huquqiy asoslar parlamentning qonun chiqaruvchi hokimiyat sifatidagi yuksak nufuzini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining davlat faoliyati jarayonida Oliy Majlisning o'rni va roli tobora ortib bormoqda. Qonunchilik tashabbusi, nazorat mexanizmlarining takomillashuvi va parlament diplomatiyasi orqali Oliy Majlis nafaqat

³⁴ O'zbekiston Respublikasi "Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonuni

³⁵ O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni



milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham O‘zbekiston manfaatlarini ilgari suruvchi strategik institutga aylanmoqda. Mamlakat taraqqiyoti va huquqiy demokratik jamiyat qurilishi yo‘lida bu institutning roli bundan keyin ham ortib borishiga shubha yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. “O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari” darslik "Huquq va Jamiyat" nashriyoti Toshkent – 2019. 70-71-betlar
3. O'zbekiston Respublikasi “Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni